

**INNOVATION TEKNOLOGIK TOPSHIRIQLAR ASOSIDA BO'LAJAK
BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KREATIV FIKRLASHINI
RIVOJLANTIRISH MAZMUNI**

G'iyosiddinova Mahmuda Alisher qizi

QDU o'qituvchi.

giyosiddinovamahmuda@gmail.com

+998912013395

Hozirgi kunda zamonaviy jamiyatda raqobatbardoshlik, innovatsion fikrlash, ilg'or texnologiyalardan foydalanish madaniyati, shaxsiy va kasbiy o'sish ehtiyoji har bir mutaxassisning asosiy sifatlariga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim tizimi oldida ham global me'yorlar va milliy rivojlanish yo'nalishlariga mos holda yangicha pedagogik yondashuvlarni shakllantirish, talaba shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, amaliy faoliyatga tayyorlash kabi dolzarb vazifalar turibdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli farmonida oliy ta'lim sohasida tub islohotlarni amalga oshirish, ta'lim mazmuni va sifati, shuningdek, ta'limning amaliy yo'nalganligini kuchaytirish bo'yicha qator strategik vazifalar belgilab berilgan. Mazkur konsepsiyada ta'lim jarayonini zamon talablariga mos tarzda tashkil etish, talabalarning shaxsiy va kasbiy ehtiyojlariga javob beruvchi individual ta'lim trayektoriyalarini shakllantirish, ijodiy fikrlovchi, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash asosiy yo'nalishlardan biri sifatida alohida qayd etilgan.

Jumladan, o'quv rejalar va dasturlarni talabalar qiziqishlari hamda mehnat bozoridagi real ehtiyojlarga moslashtirish, mustaqil ta'lim soatlarini oshirish orqali o'z-o'zini rivojlantirishga tayyor, tanqidiy va kreativ fikrlay oladigan, tahliliy yondasha oladigan yoshlarni tarbiyalashga xizmat qiluvchi metodik va texnologik yondashuvlarni joriy etish zarurligi e'tirof etilgan. Ayniqsa, o'quv jarayonini amaliy faoliyatga yo'naltirish, ilg'or xorijiy pedagogik texnologiyalar va xalqaro ta'lim standartlariga mos o'quv-uslubiy materiallardan keng foydalanish muhim strategik yo'nalish sifatida ko'rsatilgan. Bu boradagi islohotlar ta'limning barcha bosqichlariga, jumladan, boshlang'ich ta'lim yo'nalishida ta'lim olayotgan bo'lajak pedagoglarni zamonaviy kasbiy talablarga javob beradigan, innovatsion fikrlaydigan, kreativ yondashuvlarga ega mutaxassis sifatida tayyorlashni talab etadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda innovatsion texnologik topshiriqlar orqali talabalarni faol o'quvchi-subyekt sifatida shakllantirish, ularning mustaqil fikrlashi va ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarish ta'limning sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi asosiy mezonlardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Shu sababli, ta'lim tizimida kreativ fikrlashni shakllantirishga qaratilgan texnologik yechimlarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga tatbiq etish, xususan, bo'lajak boshlang'ich ta'lim

o'qituvchilarini ijodiy fikrlovchi va innovatsion metodlardan foydalana oladigan pedagog sifatida tayyorlash, hozirgi davrda dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi zamon ta'limida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari nafaqat kasbiy bilimlarga, balki yuqori darajadagi ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlariga ham ega bo'lishi zarur. Kreativ fikrlash — bu shaxsning yangi, original g'oyalarni ilgari surishi, turli muammolarni noodatiy yo'l bilan hal qila olishi, mustaqil qarorlar qabul qilish layoqatini ifodalaydigan murakkab psixologik-mental jarayondir. Ushbu kompetensiyani rivojlantirishda innovatsion texnologik topshiriqlarning mazmuni alohida o'rin tutadi.

Zamonaviy pedagogik amaliyotda innovatsion topshiriqlar orqali kreativ fikrlashni tizimli ravishda shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayon o'qituvchilarning yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish, metodik uslublarni yangilash va o'z kasbiy faoliyatida samarali ishlatish imkoniyatini kengaytiradi.

Kreativ fikrlash — bu shaxsning psixologik jihatdan murakkab, ko'p bosqichli intellektual faoliyati bo'lib, u orqali inson mavjud muammolarga standartdan tashqari, original yondashuv asosida samarali yechimlar ishlab chiqishga qodir bo'ladi. Bu jarayonda shaxs o'zining aqliy salohiyati, ilgari o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini noan'anaviy yo'llar bilan uyg'unlashtirib, yangi g'oyalar va qarorlar ishlab chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston NMIU, 2017. – 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son Qonuni / "Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi", 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son.
3. Toxtaxodjayeveva M.X. "Pedagogika nazariyasi"/ OTM uchun darslik.- T.: "Iqtisod- moliya", 2010. 136-140-b.
4. Xodjayevev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik.-T.: "Sano-standart" nashriyoti, 2017-yil.
5. Шевченко, Л.Л. Педагогическое творчество / Л.Л. Шевченко. - М.: Со- боръ, 1996.10 с.